

OTA - ONALAR HAMKORLIGIDA BOLALARINI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISH

*Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani 7-DMTT metodisti
Almatova Gulnoz Urinovna*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada hozirgi kun dolzarb muammolaridan biri ota-onalar hamkorligida bolalarni jismoniy, ma'naviy va ma'rifiy rivojlantirish, faylasuf olimlar fikrlari, bolalarni tarbiyalashda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar chet el tizimlar haqida umumiy xulosalar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, MTTda ota-onalar bilan hamkorlik, tarbiyachi, Xitoy, Koreya tajribalari.

Qadimgi yunon faylasuflari Aflatun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyani ilgari surgan edilar. Bu g'oya fransuz xayoliy sotsalistlari Sen Semon, Shari Fure asarlarida keyinchalik rivojlantirildi. Ular bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oyani ilgari surganlar. Ammo sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-ona shug'ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor bergenlar.

O'sib-unib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasi, qobiliyati, iqtidori, bilim saviyasi davlatning har tomonlama rivojlanishida muhimdir. Bolaning shaxs sifatida shakllanishi mактабда yuz beradi. Bugungi kunda ta'limga bo'lgan e'tibor natijasida mamlakatmizning chekka hududlarida ham maktabgacha ta'lim muassasalarining qurilayotganligi, texnik resurslarning ahvoli yaxshilanayotganligi, maktablar qayta ta'mirlanayotganligi, yangi qurilayotganligi, eng asosiysi ularda faoliyat ko'rsatayotgan ustoz va muallimlarga nisbatan talablarning aniq qo'yilayotganligini ko'rishimiz mumkun.

Ta'lim dargohlarini maskan deb atagan bo'lsak, oilani esa makon deb ta'rifladik. Maskan va makon so'zлari, ma'no jihatdan bir-biriga yaqin so'zлar bo'lib, tub negizida farqli ma'nolar mavjud. Ta'lim tizimidagi sifatning buzilishi aynan mana shu muommo bilan bevosita bog'liq. Oilada ota-onalar farzand tarbiyasiga vaqt ajratsa, nazoratga olsa, ijobjiy o'zgarishlar kuzatilishi, bilimli yoshlarning ko'payishi, qolaversa bu jarayonlarning mahsuli sifatida davlatning ham rivojlanishi kafolatlanadi.

Oilada muayyan ta'lim imkoniyati yoki ta'lim salohiyati mavjud bo'lsa, shaxsni to'liq shakllantirish mumkin. Oiladagi ta'lim bu - ota-ona tomonidan bolaga beriladigan bilim, ko'nikmalar bo'lib, tarbiya esa bolada ijobjiy xislatlarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat turi sifatida, ota-onalarning tarbiyachi sifatida shaxsiy namunasi bilan birga amalga oshiriladi. Ta'lim va tarbiya bir-biriga uzviy

bog‘liq tushunchalardir. Tarbiya jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Uning eng muhim xususiyati aniq maqsadga yo‘naltirilganligidir.

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni ota-onas, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlikdir. Maktab yoshida bolalarda asab tizimi yuqori darajada ta’sirchan bo‘lganligi sabab ularning tarbiyasiga alohida e’tibor talab etiladi. Shuning uchun ham maktab, ota-onas va jamoatchilik hamkorligida tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlarning uzlusizligini ta’minalash maqsadga muvofiqdir. Bolani tarbiyalashda maktab yetakchi o‘rin egallasa ham, uzlusiz tarbiyada oila yetakchi o‘rinda turadi, chunki bolalar ma’lum muddatgina ta’lim muassasasida o‘qituvchining tarbiyaviy ta’siri ostida bo‘ladi. Kuzgi, qishgi, bahorgi ayniqsa yozgi ta’til davrida bolalar o‘qituvchi nazoratidan chetda bo‘ladilar. Demak, ta’lim muassasasidagi tarbiya vaqt jihatdan chegaralangan bo‘lib, bola tarbiyasi ota-onalar va jamoatchilikka bog‘lanadi. Har bir oila ma’naviy, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatidan kelib chiqib, bolalarning tarbiyasiga turli xil yondashadilar. Masalan kimlardir, yozgi oromgohlarda bolasining dam olishiga imkoniyat yaratib bersa, yana qaysidir bir oila bolasini turli xil kasb-hunar o‘rgatadigan to‘garaklarga hunar o‘rgatishga beradi.

MTTning ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishslash shakllarini mohirlik bilan qo’shib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobjiy natijalarga erishish mumkin. MTT xodimlarini ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllaridan bir qanchasini keltiramiz:

- ota-onalar bilan yakkama-yakka ishslash. Ilg’or pedagogiktajribalarning ko’rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o’rganib ularni o’zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi.

MTT larimiz tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarning turli xil shaklli aniqlangan; oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o’tkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarning MTT hayoti bilan tanishishlari.

- ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiyl majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savoljavob kechalari.
- ko’rsatmali ishlar. Ishning bu turi ko’rgazmali, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalari bo‘yicha materiallar solingan papka.
- ota-onaga pedagogik ta’lim berish va boshqalarini ko’rsatishi mumkin.

Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minalash uchun maktabgacha ta’lim muassasasi ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilishi mumkin:

- ota-onalarning maktabgacha ta’lim muassasasi borasidagi fikrlarini hisobga olish;

- ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;
- ota-onalarni o‘quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalg etish;
- ota-onalarning muassasa hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash mumkin.

Ota-onalar bilan ishslashda quyidagi-alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim otaonalarini bog‘chaga taklif etish, alohida esdaliklar va ko‘chma papkalardan foydalanish. Bolaning uyiga borishdan ko‘zlangan maqsad —oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi, qiziqishlari, ota-onasi va oila a’zolari bilan tanishish, shuningdek ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarini o‘rganib, ommalashtirishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak yuksak axloqli, madaniyatli, bir so‘z bilan aytganda jamiyat talablariga mos yosh avlodni tarbiyalashda eng muhim vazifalarimizdan biri tarbiyachilarimizning tarbiya borasida namuna bo‘lishini ta’minlashdir. Zero ming yillar davomida faylasuflar, pedagoglar tarbiyachi bergen nasihatiga o‘zi amal qilmas ekan, tarbiyadan ko‘zlangan natijaga erishib bo’lmasligini ta’kidlaganlar. Har bir ta’lim sub’ekti xoh u o’qituvchi, hoh murabbiy, yoki ota-ona bo‘lsin haqli ravishda o‘ziga savol berishi lozim bo’ladi. Ya’ni tarbiyachi sifatida bolalarga namuna bo‘la oladimi? Demak, barkamol avlod tarbiyalashda ta’lim tizimiga keng e’tibor qaratayotgan hukumatimiz ushbu maqsadni amalga oshirishda bo‘lg’usi ota-onalarimining pedagogik madaniyatini shakllantirish masalasini hal qilmasdan turib ko‘zlangan maqsadga erishib bo’masligini e’tiborga olishlari maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori
3. Борисенко Ю.В. Психология отцовства [Текст] /Ю.В.Борисенко. - М.: «ИГ - СОЦИН», 2007. - 220с.
4. Каптерев, П.Ф. Избранные педагогические сочинения [Текст] / под. ред. А.М.Арсеньева. - М.: Педагогика, 1982. - 704 с.
5. Козлова, Т.В. Права ребенка в семье и ответственность родителей за здоровое развитие детей: методическое пособие [Текст] /Т.В.Козлова. - Самара, 2005. - 45 с.
6. Maktabgacha pedagogika [Matn] darslik / F.R.Qodirova -Xalqaro pedagogika Akademiyasining akademigi, professor, p.f.d.,Sh.Q-Toshpulatova -dotsent, N.M.Kayumova - dotsent, M.NA’zamova - Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. - 688 b.